

# ENG GO'ZAL ANDOZA



*Biz she'rsevar, shoirsevar xalqimiz. Milliy adabiyotimizning chin ma'nodagi g'amxo'ri, fidoyisi bo'lgan, uning ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan, tarixida o'chmas iz qoldirgan ijodkorlarni e'zozlaydigan, ularga yuksak ehtirom ko'rsatadigan xalqimiz.*

**Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi 162-umumta'lim maktabining jonkuyar rahbari Elza YO'LDOSHEVA hamda o'quvchilar gazetaning navbatdagi soni bilan tanishishmoqda.**

2-bet

Bugun yurtimizning barcha viloyatlarida, shahar va tumanlarida, ta'lim muassasalarida Zulfiyaxonim tavalludining 100 yilligiga bag'ishlab o'tkazilayotgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etayotgan qizlarimizning yuz-ko'zlaridagi hayajonni ko'rib, buyuk siymolarning xotirasi ham ezgulikka xizmat qilishiga amin bo'layapmiz. Shoiraning nurli siymosi yorqin bir mayoqdek bugungi kunda minglab izdoshlari yo'lini yoritib turibdi. Qizlarimiz qay bir sohada bo'lmasin, Zulfiyaxonimdek bo'lishga intilishyapti.

O'zbek ayoliga xos bo'lgan barcha fazilatlarni o'zida mujassam etgan Zulfiyaxonimning hayot yo'li hammamiz uchun ibrat. Toshkent shahar, Yashnobod tumanidagi 307-davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabida ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari ishtirokida «Zulfiyaxonim 100 yoshda» mavzusida bo'lib o'tgan tuman anjumani ham mohiyatiga ana shu g'oya singdirilganligi bilan ahamiyatlidir. Ayniqsa, rusiyazabon sinflarda o'tkazilgan noan'anaviy dars juda qiziqarli o'tdi. «Intellektual ring» bahs-munozaralarga boy bo'ldi. «Zulfiyaning hayot yo'llari» nomli ochiq darsda so'zga chiqqanlar shoiraning Vatanga muhabbat, vafo va sadoqat kabi insoniy tuyg'ular tarannum etilgan boy adabiy merosi yosh avlod kamolotida muhim vosita ekanligini ta'kidlashdi.

Hayo, vafo, sadoqat kabi fazilatlarni o'zida mujassam qilgan shoiramizning ibratli hayot yo'li barchamiz uchun eng go'zal andozadir.

Feruza JALILOVA



## O'LMAS IJODNING OLMOS QIRRALARI

*Bahor ajib go'zalligi bilan kishini o'ziga maftun etadi. Bu fast yuraklarga zavq-u shavq, shodlik ulashib keladi.*

Poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 270-umumta'lim maktabida Navoiyxonlik va Boburxonlik oyligi doirasida «Shoirligi shohligidan buyuk inson» deb nomlangan bellashuv o'tkazildi.



Bellashuvda maktabning 7-«A», «B», «V» sinf o'quvchilari to'rt shart bo'yicha o'z bilim va ijodiy salohiyatlarini namoyish etdilar. Zahiriddin Muhammad Bobur taqdimoti, «Bobur – dilbar shaxs» mavzusida

devoriy gazetalari namoyishi o'tkazildi. Bunda o'quvchilar o'zlarini tayyorlagan devoriy gazetalari sharhlab, Bobur hayoti va ijodiga oid ma'lumotlardan barchani bahramand qildi. Hay'at a'zolari, maktabning ma'naviy va ma'rifiy ishlari bo'yicha rahbar o'rinbosari

S. Xoliqova, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari D. Usmonova, S. Nortoyeva o'quvchilarning tayyorgarligini xolis baholab bordilar.

Bellashuvda 7-«A» sinf o'quvchilari g'olib deb topildi. Ularga yozuvchi Pirmuqol Qodirovning «Bobur», «Humoyun va Akbar» asarlari sovg'a qilindi.

**Muzaffar AHMEDOV**

## QALBI BAHOR KABI BEG'UBOR

Ko'klamning ilk kunlarida xalqimizning sevimli shoirasi Zulfiyaxonimning tavallud ayyomi nishonlanadi. Poytaxtimizdagi 82-umumta'lim maktabida ham el ardoqlagan shoir Zulfiyaxonim tavalludining 100 yilligi munosabati bilan tadbir bo'lib o'tdi.

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Zulxumor Po'latova hamda ma'naviyat ishlari bo'yicha jonkuyar ustoz Ne'mat aka Mirzohidov tashkillashtirgan anjuman sahna ko'rinishlari bilan boyitildi.

Tadbirda shoirasi Umida Abdumurodova ham ishtirok etib, ustoz Zulfiyaxonim haqida to'lqinlanib so'zladi.

– Men Zulfiya opa bilan hamsuhbat bo'lgan, uning dono va sermazmun o'g'itlaridan bahra olgan baxtli shoiralardanman, – dedi Umida opa hayajonlanib. – Siz kelajagi porloq, o'tmishi buyuk, ertangi kuni yorug' avlodsiz. Buning uchun sizlardan a'lo o'qish, izlanish, ustoz va ota-onalaringizni hurmat-izzat qilish talab qilinadi. Kelajakda sizdek tirishqoq, harakatchan, iqtidorli o'quvchilardan katta-katta shoir-olimlar yetishib chiqishiga ishonaman.

Bunday tadbirlar o'quvchilarga ma'naviy ozuqa berishi bilan birga, ajodlar hayotidan ibrat olib, zamonasining yetuk insonlari bo'lishiga yordam berishi, shubhasiz.

**Manzura UBAYDULLAYEVA**

## JAHON TAN OLGAN AJDODLARIMIZ

Poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 162-umumta'lim maktabida so'z mulking sultoni Alisher Navoiy hamda shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan madaniy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.



Maktabning katta majlislar zali bayramona bezatilgan. Ikki buyuk ijodkorning hayoti va ijodini aks ettiruvchi, o'quvchilar tomonidan

tayyorlangan bukletlar namoyish etilgan. Boshlovchilar Ibrohim Toshpo'latov, Fotima Norqulova, Shahrizoda Kenjayeva va Bahodir Sa'dullayev kechani ochib berishdi.

Maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Muqaddamxon Maqsudova tomonidan

tashkillashtirilgan mazkur tadbirda 6-«A» va 7-«A» sinf o'quvchilari ruboiy, g'azallardan namunalar yod aytishdi.

Ayniqsa, «Farhod va Shirin» dostonidan tayyorlangan sahna ko'rinishida Abdullo Ubaydullayev (Farhod), Zuhra Norqulova (Shirin) va Guliruxsora Abdumannopova (Mehinbonu), P.Qodirovning «Yulduzli tunlar» romanidan lavha – sahna ko'rinishida Said Toshpo'latov (Bobur), Shahrizoda Komilova (Xonzodabegim) va Xumora Sulstonova (Mohimbegim) rollarini qoyilmaqom tarzda ijro etib, tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'lishdi.

7-«A» sinf o'quvchilaridan Sabo Usanova va Robiya Yodgorxo'jayeva tomonidan dutorda yangragan o'zbek milliy kuylari, 6-«A» sinfining raqqosa qizlari ijro etgan sho'x raqslar qatnashchilarga birdek manzur bo'ldi.

**Dilorom HOTAMOVA**

kayfiyat ulashib, ularda sug'urtaga bo'lgan qiziqishlarini oshirdi.

Endi o'quvchilar «Sug'urta – mening tasavvurimda», «Sug'urta bilan kelajak sari», «Kafolat – 18 yoshda» kabi nominatsiyalarda rasm chizishadi.

**Nurbek NURALI o'g'li**

## G'OLIB BO'LISHGA SHOSHILING!

Yaqinda «Kafolat» sug'urta kompaniyasi hamda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Toshkent shahar Kengashi vakillari hamkorligida Chilonzor tumanidagi 162-umumta'lim maktabida «Sug'urta tushunchasi va uning afzalliklari» mavzusida navbatdagi seminar bo'lib o'tdi.



O'quvchi-yoshlar o'rtasida sug'urta madaniyatini shakllantirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, davlatimiz tomonidan sug'urta sohasida yaratilgan imkoniyatlar, uning afzalliklarini yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilish maqsadida tashkil etilgan mazkur tadbir yosh targ'ibotchilar Og'abek Atabekov va Feruza Rashidova tomonidan interfaol usulda olib borildi. 5-9-sinf o'quvchilaridan iborat ishtirokchilar «Aqliy hujum» hamda viktorinalar vositasida mavzuga doir tushunchalarga ega bo'lishdi. Ayniqsa, tashkilotchilarning «O'zingizni sinab ko'ring» qiziqarli psixologik testi o'quvchilarga quvnoq



«Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya fondi onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, sog'lom avlodni tarbiyalash borasida bir qator loyihalarni amalga oshirmoqda.

## SOG'LOM BOLA – YURT TAYANCHI

Shu maqsadda fond tomonidan bemor bolalarni chet ellardagi nufuzli shifoxonalarda davolash bo'yicha maxsus dastur ishlab chiqildi. 2002–2015-yillar davomida 250 nafar o'zbekistonlik bemor bolalar terining kuyish asoratlari, tug'ma qo'l-oyoq bo'g'imlari kasalliklari va boshqa tashxislar bilan Germaniya shifoxonalarda davolanishdi.

Kuni kecha Toshkent Xalqaro aeroportida Andijon, Buxoro, Namangan, Navoiy, Samarqand, Qashqadaryo, Farg'ona va Toshkent viloyatidan 14 nafar bolajonlar Germaniya shifoxonalarda javolanish uchun jo'nab ketishdi.

Ahamiyatli jihati, shu kuni bolajonlar yuz-ko'zida xotirjamlik, mamlakatimizdagi har bir bola e'tiborda ekanligidan mamnunlik ifodasi mujassam edi. Ota-onalar bilan suhbatimiz chog'i bunga yana bir bor amin bo'ldik.

– Biz bolalarimizni juda xotirjam kuzatmoqdamiz, chunki ularga hukumatimiz ota-onalaridan ham ziyoda mehr ko'rsatayotganiga guvohimiz, – dedi hayajon bilan namanganlik onaxon. Onaxonning hayajoni bizga ham ko'chdi. Yaqin kunlarda bu bolalar sog'lom bo'lib ota-onalari bag'riga qaytib kelishlaridan ko'nglimiz ko'tarilganicha ular bilan xayrlashdik.

Yusuf ABDULLAYEV

**Ilm mash'ali o'zining nuri bilan kelajakni yoritib turadi. Bugungi kunda turli fanlardan a'lo bahoga o'qiyotgan o'quvchilar safi kundan kunga kengayib bormoqda.**

Maktabimizning 9-«A» sinf o'quvchisi Rushana G'aniyeva tuman miqoyosida o'tkazilgan «Bilimlar bellashuvi»da geografiya fanidan 1-o'rinni egalladi. Ustozi Venera opa Namozova maktabdoshimning bilimdonligi bilan faxrlanishini alohida ta'kidladi. Quvonarlisi, bilim maskanimizda bunday zukko o'quvchilar kam emas. Mazkur bellashuvda kimyo fani bo'yicha 9-«A» sinf o'quvchisi Muqaddas Davlatova ham faxrli birinchi o'rinni egallab, viloyatda o'tkaziladigan

## G'OLIBA QIZLAR



tanlovda qatnashish huquqini qo'lga kiritdi. Bu borada kimyo fani o'qituvchisi Gulnoz opa Meliyevaning xizmatlari katta, albatta. Biz ham g'olib o'quvchilardan o'rnak olishga harakat qilamiz.

Mohiniso BOBOQULOVA,  
Samarqand viloyati,  
Pastdarg'om tumanidagi  
18-umumta'lim  
maktabining 8-«A» sinf  
o'quvchisi

## HUQUQINGIZNI BILASIZMI?

Yaqinda poytaxtning O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tasarrufidagi 171-umumta'lim maktabida voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan ma'naviy-tarbiyaviy tadbir uyushtirildi.

Tadbirni maktab ma'naviy-tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Durdona Qosimova ochib berarkan, barkamol avlod ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish va bu o'rinda ta'lim muassasalarining o'rni borasida fikr yuritdi.

Mirzo Ulug'bek tuman prokuraturasidan Shoabzal Inoyatov o'quvchilarning qonun, jinoyat va jazo borasidagi tushunchalarini so'ragach, yoshlarning bo'sh vaqti mazmunli tashkil etilmasligi, ota-ona nazoratisiz qolishi

oqibatida sodir etiladigan huquqbuzarliklar ular kelajagida salbiy iz qoldirishi haqida gapirdi. O'quvchilar mutaxassisga o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan murojaat qilib, shaxsiy fikrlari bilan o'rtoqlashdi. Bahs-munozara tarzida tashkil etilgan tadbirda ishtirokchilar yoshlar o'rtasidagi huquqbuzarliklarning oldini olishga doir bilimga ega bo'lishdi. Kelajak har bir kishining o'z qo'lida ekanligi yana bir bor ta'kidlandi.



Alisher FAYZULLAYEV

## MO'JAZ ZIYO TARQATUVCHI

Yaqinda Namangan viloyatining Pop tumanida yangi «Bolajon» kitob do'konining ochilishi tumandagi o'quvchi-yoshlar va kitobsevarlar uchun ajoyib tuhfa bo'ldi. Ushbu do'kondan o'zbek va jahon badiiy adabiyotining klassik durdonalari, ilmiy, siyosiy va o'quv qo'llanma kitoblar o'rin olgan.

Ziyo maskanining afzallik taraflaridan biri bunda noyob adabiyotlarni qabul qilish yo'lga qo'yilgan. Sotuvchi Islomjon Abdvaluievning aytishicha, kelgusida bu mo'jaz kitob do'koni kengaytirilib, respublikamiz o'quvchilari ijod namunalaridan iborat adabiyotlar bilan boyitish rejalashtirilgan.

Jahongir NAMOZOV,  
Namangan viloyati, Pop transport va aloqa kolleji o'quvchisi

## MUHOQAMAT UCHUN MAVZU

## SINF JURNALI

Sodiq muallim viloyat markazida bo'lib o'tayotgan tanlovga hakamlilik qilgani ketganida, sinf jurnali yo'qolib qoldi.

– Ikki kundan buyon 7-«B»ning sinf jurnali yo'q. Jurnalni begonalar olib ketmaydi. Qani, bu muhim hujjatni kim olgan bo'lsa, o'rnidan tursin! – Sodiq muallimning ovozi momaqaldiroqdek guldirdi.

Sinfga sukunat cho'kdi. O'zi kichkina bo'lsa-da, yo'g'on ovozi Anvar:

– Ustoz, anaqa... – deya gap boshlayotgan edi, Sodiq muallim qo'l harakati bilan uni to'xtatdi.

– Men chaqimchilarni ham, chaqimchilikni ham yomon ko'raman. Kim bu nomaqbul ishga qo'l urgan bo'lsa, marhamat qilib, o'zi aybiga iqror bo'lsin! Agar kimdir sinfdoshining ustidan chaqimchilik qilsa, aybdorga bir jazo bersam, uni ikki hissa jazolayman, – dedi.

Sinf suv quyandek jim-jit. Sodiq muallim kitob o'qib o'tirar, goh-goh ko'zoynagi ostidan o'quvchilariga qarab-qarab qo'yardi. Oradan yarim soatcha vaqt o'tgach, muallim:

– Hamma o'rnidan tursin! – dedi. Bolalar gur etib o'rinlaridan turishdi. – Sinf jurnalini olgan o'quvchi «Men,

## KIMDA?

ustoz», demaguncha hammingiz tik turaverasiz! – dedi-da, yana kitob o'qishga tushdi.

Bolalar betoqat bo'lib tomoq qirishar, og'irliklarini goh u, goh bu oyoqlariga tashlashar edi. Axiyri, shartakligi bilan nom qozongan Javlon:

– Sinf jurnalini men olganim yo'q, men o'tiraman! – dedi-da, shartta o'tirdi.

– Ustoz, men ham olmadim, – dedi Sobir o'tirayotib.

– Men ham! – Olganim yo'q...

Oxirida faqat... Kozim qoldi. U atrofga alangladi, egildi. O'tirmoqqa taraddudlandi. Lekin bunday qila olmadi:

– Nega bo'lmasa matem menga «2» qo'yadi? – deb yig'lab yubordi.

– Bilmagandirsan-da, – dedi Sodiq muallim. – Sho'xlik qilib, boshqalarga xalaqit qilgandim.

Sodiq muallim hanuz hiqillayotgan Kozimga qarab turdi-da:



– Har holda «2» baholi sahifani yirtmagandirsan?! – dedi.

– Yo'q, jurnalni qog'ozga o'rab, ehtiyot qilib qo'yanman.

– Shu joyiga kelganda aqling ishlabdi... Hammaga javob, Kozim, sen sinf sardori bilan borib jurnalni olib kelib, joyiga qo'yasan...

Sodiq muallim hech kimga hech qanday jazo bermadi. Ammo shu voqeadan so'ng 7-«B»da hech kim o'rtog'ini:

– Anaqa... – deya chaqmaydigan, kim yarashiqsiz ish qilsa: – Men qildim, ustoz! – deya aybini bo'yniga oladigan bo'ldi.

Qutlibeka RAHIMBOYEVA

## GULZIYONING «ORZULAR KEMASI»

Gulziyo Abdug'aniyeva Andijon viloyati, Xo'jaobod tumanidagi 20-umumta'lim maktabining 9-sinfida ta'lim oladi. Tuman «Barkamol avlod» bolalar markazi «Yosh o'lkashunoslar», «Yosh ekolog» hamda «Yosh sayyoh» to'garaklari a'zosi bo'lgan o'quvchi barcha fanlarni puxta o'zlashtirish bilan bir qatorda, ustoz Nozimaxon Karimberdiyevadan geografiyani chuqur o'rganmoqda. U Andijon davlat universiteti fan doktori A. Sobirov rahbarligida «Geografik obyektlarga nom berish tamoyillari» mavzusida ilmiy izlanish olib bormoqda.



Gulziyo o'tgan davr ichida ko'plab yutuqlarga erishdi. Jumladan, «Yosh o'lkashunos» to'garagi tarkibida «O'zligingdan aylanay, o'lkam» ko'rik-tanlovining respublika bosqichida faol ishtiroki uchun maxsus diplom bilan taqdirlandi. «Barkamol avlod» respublika bolalar markazida tuman «Yosh ekolog» guruhi tarkibida «Bolalar va suv» ekologiya festivalining respublika bosqichida 1-o'rin va 1-darajali diplom sohibasi bo'ldi.

2014-yili «Sug'diyona – 2014» turiasida faol qatnashib, «Orasta qizlar» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichidagi ishtiroki uchun ham taqdirlandi.

Gulziyo maktabda o'z tashabbusi bilan geografiya faniga oid «Orzular kemasi», «Yosh geograflar» mavzusida davra suhbatlari va viktorinalar olib boradi. Bo'sh vaqtlarida she'riyat bilan shug'ullanadi. Uning «Qor parchasi», «Bahor», «Kuz», «Gullar» she'rlari «Uyatchan ayiq», «Oshqovoq hangomasi» to'plamlariga kiritilgan.

Yosh iste'dod egasining orzulari ko'p. Kelajakda O'zbekiston milliy universitetining geodeziya, kartografiya va kadastr yo'nalishida o'qib, respublikamiz tog'li hududlari geografiyasini o'rganmoqchi. Maqsadlar yo'lida aslo tolma, Gulziyo!

Xurshida MIRKOMIL qizi

## NIGINALAR BOR BO'LSIN!

Odobi, namunali xulqi, a'lo baholari bilan maktabi, ustozlari va ota-onasining faxri bo'lgan Buxoro viloyati, Kogon shahridagi 7-umumta'lim maktabining 9-«V» sinf o'quvchisi Nigina Farmonova tengdoshlariga har tomonlama o'rmaq bo'ladigan o'quvchi. U barcha fanlarni a'loga o'zlashtiradi.

Yaqinda umumta'lim fanlari bo'yicha olimpiadaning shahar bosqichi o'tkazildi. Unda a'lochi qiz rus tili fanidan ishtirok etdi. Bilimlar sinovi natijalari tahlil qilinganda, Nigina barcha ishtirokchilar ichida eng yuqori ball egallagan ma'lum bo'ldi. Natijada, u shaharda 1-o'rinni egallab, viloyat bosqichida ishtirok etish imkoniyatini qo'lga kiritdi.

U ustoz Nasiba Bo'riyevaning o'gitlariga amal qilgan holda qo'shimcha dars mashg'ulotlarida qatnashib, bilimlarini mustahkamlab boradi. Yurtimiz ravnaqi yo'lida fidokorona xizmat qilishni esa oliy maqsadi deb biladi.

Nigina Farmonova – iqtidor egasi. Uning jamoat ishlaridagi faolligini alohida ta'kidlash joiz. Ana shunday o'quvchilarimiz bilan faxrlanamiz, – deydi maktab direktori Bahodir Halimov.

Biz ham respublikamiz ta'lim muassasalarida Nigina kabi o'quvchilarimiz borligidan faxrlandik.



Sirdaryo viloyati, Oqoltin tuman «Barkamol avlod» bolalar markazida o'quvchilarning bilimlarini yanada rivojlantirish bo'yicha talaygina ishlar amalga oshirilmoqda. Markazda o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida turli ommaviy tadbir, ko'rik-tanlovlar doimiy o'tkazib kelinadi.



## NAMUNALI TO'GARAK RAHBARI

«Folklor» to'garagi rahbari Oygul Mamatova har bir mashg'ulotni qiziqarli tashkil etishi bilan o'quvchilarni to'garakka jalb qila oladi. U o'z ustida muntazam ish olib borishining samarasi sifatida 2014-yilda Respublika «Barkamol avlod» bolalar markazining «Yilning eng yaxshi to'garak rahbari» ko'rik-tanlovi viloyat bosqichida 1-o'rin, respublika bosqichida «Eng bilimdon to'garak rahbari» nominatsiyasini qo'lga kiritdi.

## YOSH DASTURCHI

Tumandagi 3-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Nilufar Mirbaratova Markazda texnik ijodkorlik yo'nalishi «Yosh dasturchi» to'garagi a'zosi. Bir necha yillardan beri to'garakka faol qatnashib kelayotgan o'quvchi qobiliyati bois, ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritdi.

U o'tgan yilning noyabr oyida o'tkazilgan «Sog'lom oila – sog'lom bola» shiori ostida fotosuratlar ko'rik-tanlovi viloyat bosqichida «Betakror lahzalar» ishi bo'yicha 1-o'rinni egalladi va respublikada 3-o'ringa loyiq deb topildi.

Dilnoza ERALIYEVA

Aziz o'quvchilar! Bugun guyohvandlikka qarshi kurashish, o'sib kelayotgan yosh avlodni uning salbiy oqibatlaridan saqlash maqsadida yurtimizda har yili 1-fevraldan 1-martgacha «Yoshlar orasida narkotik moddalarning tarqalishiga qarshi kurash» oyligini o'tkazish yaxshi an'anaga aylangan.

## BIZ GIYOHVANDLIKKA QARSHIMIZ!



Tadbir doirasida o'quv muassasalarida ko'plab uchrashuvlar, seminarlar bo'lib o'tadi. Giyohvandlik ijtimoiy illat, ma'naviy va jismoniy kasallik bo'lib, giyohvand moddalar inson bosh miyasiga ta'sir etib, unga o'rganib qolishini ta'minlaydi, bu esa ichki a'zolarining normal holatda ishlamasligi, immunitetning pasayib ketishiga olib keladi. Giyohvand modda ta'siridagi inson o'zi bilmagan holda turli jinoyatlarga qo'l urishi, oqibatda, jinoyatchiga aylanib qolishi mumkin. Bu kasallik tufayli har yili dunyo bo'yicha millionlab insonlar hayotdan ko'z yumishadi.

Azizlar, «Oq ajal» deya ta'kidlanayotgan, qanchadan qancha umrlar zavoliga aylanayotgan giyohvandlikdan o'zingizni, do'stlaringizni, yaqinlaringizni asrang. Kuch-g'ayratingiz, bilim va tafakkuringizni ezigulik yo'lida sarflang. Mamlakatimiz kelajagi sizning qo'lingizda ekanligini unutmag.

Ozoda TURSUNBOYEVA

**BIZ SEVGAN SAHIFA!**

Gazetada «Ingliz tilini o'rganamiz» sahifasining tashkil etilishi ayni muddao bo'ldi.

Bu darslar bizga xorijiy tilni mukammal o'rganishda, do'stlarimiz bilan chet tilida qiyinmay so'zlashishimizga yaqindan yordam bermoqda. Maktabda o'layotgan saboqlarimizga qo'shimcha ravishda ko'p ma'lumotlarni o'rganyapmiz. Bu rukndan yanada qiziqarli maqolalar, boshqotirma-yu test savollarini va yangi saboqlarni kutib qolamiz.

Aziza SHUKRULLAYEVA,  
Jizzax shahridagi 10-umumta'lim maktabining 6-sinf o'qituvchisi

Sirdaryo viloyati, Shirin shahridagi 2-umumta'lim maktabida bugungi kunda 3 nafar ingliz tili o'qituvchisi faoliyat olib boradi.

**XORIJIY TIL BILIMDONLARI**



Zamonaviy jihozlarga ega chet tili xonalarida saboq berayotgan pedagoglar «Xorijiy til bilimdoni» Sirdaryo viloyati hokimligi stipendiyasi sovrindorlari bo'lishgan. Har yili shogirdlari «Bilimlar bellashuvi» va «Fan olimpiadasi» shahar bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritib, viloyat bosqichida ham faxrli o'rinlarni egallashgani bois, Lobar To'yqulova va Iroda Mo'minova viloyat hokimligi mukofoti – «Eng yaxshi fan o'qituvchisi» g'olibi bo'lishgan.

O'tgan yili maskanda xorijiy tillarni o'qitish borasida katta ishlar amalga oshirildi. 2-«A» va 2-«B» sinflar ingliz tiliga chuqurlashtirildi. Maskanda ingliz tili «Mahorat maktabi» tashkil etildi.

**Lesson 24**

**DO YOU KNOW THE HISTORY OF TELEVISION?  
(Oynayi jahonning tarixini bilasizmi?)**

The first commercial television broadcast was made on April 20, 1939 by Radio Corporation of America. Since 1939, it has become one of the most important facts of modern life. Television is very much a part of the modern world. Its effects are felt all over the world.

Television is a reflection of the modern world, say some people. It shows contemporary society. It affects customs and culture, others say. Television is bad for culture because it keeps culture from growing, say still others.

Good or bad, television is difficult to avoid. Its pictures enter homes, stores, airports and factories.

**New words:**

- Commercial – tijorat
- Corporation – aksionerlik jamiyati
- Effect – ta'sir ko'rsatmoq
- Reflection – aks ettirish
- Contemporary – zamonaviy, hozirgi
- Society – jamiyat
- Affect – salbiy ta'sir ko'rsatmoq
- Still – hali ham
- Avoid – oldini olmoq



**Exercises:**

A. Check (✓) the true facts from the reading.

- Television
- has wide influence. \_\_\_\_\_
  - is a modern day fact. \_\_\_\_\_
  - can influence culture. \_\_\_\_\_
  - is easy to avoid. \_\_\_\_\_
  - reflects the sun and moon. \_\_\_\_\_
  - is found in homes. \_\_\_\_\_
  - can't last long. \_\_\_\_\_

B. What's missing? Find the missing nouns in the reading.

1. Radio \_\_\_\_\_ of America.
2. One of the most important \_\_\_\_\_
3. A part of the modern \_\_\_\_\_
4. Television is a \_\_\_\_\_ of the modern world.
5. It shows contemporary \_\_\_\_\_
6. It keeps \_\_\_\_\_ from growing.

C. Circle the answer.

1. The effects of television are a) reflections b) commercial c) facts.
2. America made the a) longest b) first c) second commercial television broadcast.
3. Television is not found in a) rivers b) factories c) airports.
4. It is difficult to a) watch b) hear c) avoid television.

Dinara SHAKIROVA tayyorladi

**SUCCESS OF SCHOOLFELLOWS  
(Maktabdoshlar g'alabasi)**

Dilnoza, Gulnoza and Dostonbek study at school №1 in Yangiyer town. They do Taekwondo and they are Taekwondo champions. But they are not only good at sports, they make the best of their time attending various clubs as English, Russian and music. Dostonbek and Gulnoza practise writing poems in English. Teachers and pupils respect them that they are wise, clever and diligent pupils of the school.

Muhayyo RIZAYEVA,  
Sirdaryo viloyati, Yangiyer shahri, 1-umumta'lim maktabining ingliz tili o'qituvchisi

**MY FAMILY**


- My father and mother
- My cleverest brother
- They are my family
- We live lucky, happily
- I love my father
- He is brave and strong
- I love my mother
- She loves music and songs
- I love my brother
- He is funny and gay
- We love each other
- Forever and everyday



Gulnoza TILYAVOVA

**Riddles  
(Topishmoqlar)**

If you want to soften the fields,  
You may use me in spring and autumns.



It has not a mouth but has  
a lot of teeth,  
It chews logs and sticks.



JDPI qoshidagi 2-son akademik litsey o'quvchisi  
Zilola JAMOLOVA tarjimasi

**TONGUE TWISTERS  
(Tez aytishlar)**

Thirty three thousand feathers  
on a thrushes throat

From a cheap and chippy chop-  
per on a big blue block

Umida UMAROVA

## ERKA QIZINGMAN!



Tinchlik degan ne'mat hukmron,  
Vatan ozod, obod, farovon.  
Faxrlanib aytaman shodon,  
Mening yurtim O'zbekistondir!

Musaffodir osmonimiz ham,  
Biz hech kimdan bo'lmagaymiz kam.  
Bu shundayin aziz makondir,  
Mening yurtim O'zbekistondir!

Quchog'ingda erka qizingman,  
Osmoningda hur yulduzingman,  
Ta'rifingni kuylar sozingman,  
Mening yurtim O'zbekistondir!

Laylo AVAZBEKOVA,  
Samarqand viloyati, Qo'shrabot  
tumanidagi 48-umumta'lim  
maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi



## IFTIXOR

O'zbekimning nomini,  
Olmoqdaman qalamga.  
Millatimning shuhratin,  
Yoyaman keng olamga.

Vatanimning bayrog'i,  
Hilpiraydi samoda.  
Uning rangin jilosi,  
Kamalak bu dunyoga.

Zebiniso JO'RAYEVA,  
Surxondaryo viloyati,  
Denov tumanidagi  
19-umumta'lim maktabining  
8-«B» sinf o'quvchisi

## MEN DADAMGA O'XSHAYMAN!

Uyimning quyoshi,  
Ulkan ishlar yo'ldoshi.  
Jonkuyardirlar biram,  
Mening mehribon dadam.

Xuddi men dadam kabi,  
Ezgu ishlarga shayman.  
Ukam, singlim, onamga,  
Ham dadamga o'xshayman!

Quyoshdan qaynoq mehri,  
Bu Oллоhning bir sehri.  
Yuzida nur muloyim,  
Yelib yurar har doim.

Mehribon dadam sabab,  
G'am ko'rmayin yashayman.  
Ukam, singlim - onamga,  
Men - dadamga o'xshayman!



Muxlisa KAMALOVA,  
Qoraqalpog'iston Respublikasi,  
To'rtko'l tumanidagi 11-umumta'lim  
maktabining 9-sinf o'quvchisi

## SHE'RIYAT

Orzularim bir dunyo,  
Dilim to'la pok niyat.  
Ularni men senga jo,  
Qilmoqchiman, she'riyat!

Vatan, ona ardog'in -  
Unutmoqlik xo'b uyat.  
Ular madhin sen ila,  
Tuzmoqchiman, she'riyat.

Hayotim sen-la go'zal,  
Tog'dek baland bu boshim.  
Men giyohman, sen esa  
Nur sochuvchi quyoshim!

Mushtariy MURODJONOVA,  
O'zDJTU qoshidagi Uchtepa akademik  
litseyining 1-bosqich o'quvchisi

## QADRLIDIR BIZGA SUV

Adirlarda pishqirib,  
Daryo to'lar hayqirib.  
Dengizlarni to'ldirib,  
Mavjlanadi oqar suv!

Baliqlarning makoni,  
Tiriklik jon-jahoni.  
O'simliklarning qoni,  
Hayotidir zilol suv!

Ekinlarning madori,  
Tashnalarga u - dori.  
Odanzod baxt-iqboli,  
Qadrlidir doim suv!

Shahodat OMONOVA,  
Zomin tumanidagi 6-umumta'lim  
maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi

## YOMG'IR ZAVQI

Bahorda ko'kda  
Chaqmoq chaqadi,  
Bulutlar xursand  
Yomg'ir yog'adi.

Momaqaldiroq  
Gumburlagan chog',  
Qo'ziqorinlar  
Kiyishar qalpoq.

Yomg'ir kuch berar  
Maysaga, yerga,  
Yomg'irda yurish  
Zavq berar dilga.

Sevinch NORMO'MINOVA,  
Toshkent shahridagi 282-umumta'lim  
maktabining 4-«A» sinf o'quvchisi

Qadim zamonda bir shahar bo'lgan ekan. Uning boshqa shaharlardan farqi bu yerda tug'ilgan chaqaloqlarga har yili turfa ismlar qo'yilarkan. Bir yili tug'ilgan qiz bolalarga gullarning nomlari qo'yilsa, o'g'il bolalar o'simliklarning nomi bilan atalar, keyingi yilda qiz bolalarga mevalarning nomlari qo'yilsa, o'g'il bolalarga sabzavotlardan ism qo'yilarkan.

Bu an'ana necha asrlar mobaynida

## TABIB QIZ

saqlanib davom etardi. Shahar yaqinida bir o'rmon bo'lib, uning chekkasidagi eski bir

kulbada gullarning nomi rusumga kirgan yilda tug'ilgan Nastarin ismli qiz yolg'iz yasharkan. Qizaloqning ota-onasi yoshligida vafot etgandi. U har kuni o'rmondan har xil shifobaxsh o'simliklarni terib, bemorlarni davolardi. Giyohlarning turlarini bolaligida tabib onasidan o'rganib olgandi.

Bir kuni Nastarin odatdagiday giyoh terish uchun o'rmonga boribdi. Zerikkanidan ashula xirgoyi qilib yursa, birdan jon holatda ovchilardan qochib kelayotgan quyonga ko'zi tushibdi. Quyong qizni ko'rishi bilan «iltimos, meni yashir, yo'qsa ovchilar tutib olishadi», debdi. Mehribon qizcha darhol giyoh terib yurgan qopini quyoning ustiga tashlabdi-yu, unga qimirlamay yotishini tayinlabdi. Birozdan so'ng ovchilar yetib kelishibdi. Ulardan biri Nastarindan: «Mana shu yerdan bir

quyon yugurib o'tmadimi?» deb so'rabdi. Nastarin: «Ha, o'tdi. Anavi butazorga kirib ketdi», debdi. Ovchilar o'sha tarafga qarab chopishibdi. Xavfdan qutulgan quyon xursand bo'lib: «Senga katta rahmat! Bu yaxshiligingni unutmayman», deya unga minnatdorlik bildiribdi. Shu tariqa Nastarin bilan quyon do'stlashib, ikkalasi birga yashay boshlabdi. Quyon har kuni tong sahardan giyoh terгани toqqa chiqib ketarkan, Nastarin esa kulbasida har doimgiday bemorlarni davolay boshlabdi.

Tabib qiz va uning yordamchisidan shifo topgan kishilar hali-hamon ularni maqtab eslasharkan.

Munira KARIMOVA,  
poytaxtimizdagi 126-umumta'lim  
maktabining 6-«B» sinf o'quvchisi



(Ertak)



Jahongir Muhiddinov Samarqand tumanidagi 49-umumta'lim maktabining 4-«B» sinf o'quvchisi. U a'lo o'qish bilan birga, sportning muaytay turi bilan muntazam shug'ullanadi.

## «QAYNAMA»NING JAHONGIRI



Sportning ushbu turi bo'yicha tuman, viloyat musobaqalarida faol ishtirok etib, bir necha marta faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan. Muaytay bo'yicha «Qishki ta'til» sovrini uchun 2001–2003-yillarda tug'ilgan o'quvchilar o'rtasidagi respublika turnirida 34 kg. vazn toifasida 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

Jahongir kelajakda otasi, Bolalar va o'smirlar sport maktabi o'qituvchisi Nuriddin aka kabi murabbiy bo'lmoqchi. U hozirdanoq barcha darslarni a'lola o'zlashtirib, sport mashg'ulotlariga muntazam qatnashish orqali orzulariga erishishni istaydi.

Zero, orzuning ijobati iroda-yu jasoratda.

Shoira SHUKUROVA va Muhammadsodiq ALIMOV tayyorlashdi

## SPORT BILAN DO'STLASHING

Sport bolalarni sog'lom, kuchli, mard va qat'iyatli qilib kamolga yetkazadi.

Kozimjon Abdurashidov poytaxtimizdagi 128-umumta'lim maktabining 8-«A» sinfidagi o'qiydi.

Biologiya, ona tili va adabiyot fanlarini sevadigan o'quvchi sinf rahbari Dilfuza Sapayevaning «o'ng qo'li». Darsi tamom bo'ldi, deguncha uyga shoshadi, ro'zg'or ishlarida onasiga yaqin yordamchi.

Kozimjon 3 oydan beri sport to'garagiga qatnashadi. Murabbiy Igor Chernyayevdan dzyudo sirlarini o'rganayotgan o'quvchi hali katta musobaqalarda ishtirok etganicha yo'q. Lekin uning maqsadlari yuksak. Qachonlardir oliy shohsupalarda o'rni bo'lishiga ishonadi.



Andijon viloyati Tennis federatsiyasining amaliy yordami tufayli katta tennis bilan shug'ullanuvchi marhamatlik o'quvchilar keyingi yillarda O'zbekiston chempionatlari va ochiq birinchiliklarida sovrinli o'rinlarni egallab kelmoqda. Bular orasida iqtidorli tennischi Ismoiljon Toshboltayev katta muvaffaqiyatlarga erishmoqda.

## MOHIR RAKETKACHI

Ismoiljon ushbu sport turi bilan 6 yildan buyon murabbiy Rasuljon Sultonaliyev qo'l ostida muntazam shug'ullanib, o'z mahoratini oshirib kelmoqda. U o'tgan yillar mobaynida O'zbekiston chempionatida ikki karra faxrli o'rinlarni egalladi. Respublika ochiq birinchiliklarida bir necha marta sovrinli o'rinlarni oldi.

Ta'kidlash lozimki, o'tgan yil sportchi hayotida muhim voqealarga boy bo'ldi. Boisi, avgust oyining so'nggi kunlarida Chirchiq shahrida mamlakatimiz Bolalar va o'smirlar sport maktabi va Ixtisoslashtirilgan bolalar olimpiya zaxiralari tennis maktablari o'rtasida bo'lib o'tgan respublika chempionatida Ismoiljon barcha raqiblaridan ustun keldi, viloyat jamoasi 1-o'rinni egalladi. Undan final o'yinlaridan qaysi biri siz uchun murakkab kechdi, deb so'raganimizda, u:

«Bilasiz, final o'yinida har bir viloyatdan eng kuchli sportchi qatnashadi, shuning uchun har bir o'yin keskin kurashlar ostida o'tdi. Oldindan biror natijani aytish qiyin edi. Ammo men uchun yarim finalda buxorolik tengqurimni 4/2 hisobida yutib turganimda, raketkamning to'rlari uzilib ketdi. Natijada boshqa raketka bilan o'yinashga to'g'ri keldi. Hisob 4/4 bo'lib qoldi, shunda murabbiyim: «Sizga raketkani farqi yo'q-ku?! Qani, o'z o'yiningizni o'ynang!» dedi. Shundan so'ng o'zimni qo'lga olib, g'alabaga erishdim. O'tgan hafta Marhamat bolalar va o'smirlar sport maktabi tarbiyalanuvchisining 2014-yil davomida erishgan yutuqlari Andijon tennis federatsiyasi tomonidan munosib baholalanib, sport anjomlari bilan mukofotlandi.»

Zarnigor MUSAYEVA



Bolakayning orzusi mohir karatechi bo'lish edi. Biroq ota-onasi bunga qarshilik qilishardi. Bir kuni kutilmagan falokat tufayli bolakay chap qo'lidan ayrildi.

## IRODA

har qanday to'siqlarni yenguvchi qudrat

Ota-onasi uning ahvolini ko'rib, biroq chalg'ir, degan ma'q-

sadda karate murabbiyini yollashdi. Murabbiy birinchi darsda unga qarshisidagi raqibni o'ng qo'l bilan ushlab, ustidan otib yuborishini o'rgatdi. Ikkinchi, uchinchi, hatto keyingi kunlarda ham bir xil mashqni bajartirardi.

Bolakay bir kuni murabbiyiga: «Ustoz, juda zerikib ketdim. Endi boshqa usullarni o'rgansak ham bo'lar,» dedi.

Murabbiy esa bu taklifga rozi bo'lmay, dunyoda bu mashqni eng tez bajaradigan sportchi bo'lmagunicha davom etaverishini aytdi. Bolakay bu mashqni shu darajada o'zlashtirib oldiki, hatto murabbiyini ham ko'z ochib-yumguncha yerga uloqtirardi.

Bir kuni murabbiy qo'lida bir qog'oz bilan keldi. Qog'ozda yosh sportchining yoshlar o'rtasida o'tkaziladigan karate chempionatiga

harakatni bilaman-ku.

Murabbiy esa:

«Sen faqat o'sha harakatni bajar,» deb javob berdi.

Bolakay kurash maydonchasiga chiqdi va o'rgangan mashq bilan raqibini mag'lub qildi. Hatto shu birgina harakat bilan finalgacha yetib keldi. Finalda o'zidan ikki barobar kuchli raqib bilan yuzlashdi. Avvaliga juda qo'rqdi, lekin yana murabbiyi o'rgatgan harakatni qo'llab, so'nggi raqibini ham yengdi va musobaqa g'olibi bo'ldi. Shogird sevinch bilan murabbiyining oldiga yugurib borib so'radi:

«Ustoz, hech aqlimga sig'irolmayapman, nahotki g'olib bo'ldim?!»

Murabbiy shogirdining yuziga tikilib, shunday javob berdi:

«Sen o'rgangan harakat karateda eng qiyin mashqlardan biri va unga qarshi harakat qilishning birgina chorasi raqibning chap qo'lidan ushlab edi. Senda esa...»

Jamshid MATYOQUBOV



Kamron maktabdan qaytib, hali kiyimlarini almashtirishga ham ulgurmagan edi. Ko'cha tomondan eshitilgan shovqindan hayron bo'lib, derazadan tashqariga mo'raladi. Ko'chada sinfdoshi Laziz qo'lida cho'zma bilan qushlarni nishonga olayotgan ekan. Kamron



## KAMRONNING QANOTLI DO'STI

shoshganicha uning oldiga yugurdi. U «mergan»ning yoniga yaqinlashganida, tepadan potirlagancha bir chumchuq uning oyog'i ostiga tushdi. Qushcha qanotlarini yig'olmas, oyog'ini ham bosolmay chirillab zorlanardi. Kamronning qushchaga rahmi keldi.

– Nima qilib qo'yding? – dedi Lazizga achchiqlanib. – U senga nima yomonlik qildi?!

– Ishing nima, – dedi Laziz beparvo. – Yo u senikimi?

Laziz shunday deganicha oyog'ining uchi bilan chumchuqni turtib qo'ydi. Kamronning butun vujudi titrab ketdi.

– Qushchani menga ber, senga to'rtta rangli qalamimni beraman. To'rtta daftar ham olasan, – dedi Kamron sinfdoshining miq etmay turganidan xavotirga tushib.

– Bo'lmaydi, – dedi Laziz qushcha tomon qo'l cho'zarkan. – Men uni hozir suvga pishaman.

– Yo'q, unday qilmaysan, – dedi Kamron uning qo'lga yopishib. – Mana, siyohli ruchkam ham senga, – deya qushchani avaylab qo'lga oldi.

Qushcha uning qo'lida dir-dir titrardi. Kamron qushchani uyga olib kirib oyog'ini taxtakachladi. Qanotiga malham surtib, parvarishladi. Tez kunda qushcha o'nglana boshladi. U cho'chimasdan Kamronning qo'llari, yelkasiga chiqib o'ynaydigan bo'ldi. Uy ichida parvoz qila boshlaganida esa Kamronning quvonchi ichiga sig'may ketdi. Qanotli do'stini tashqariga olib chiqib, kaftini yozdi. Qushcha xaloskorining boshi uzra ikki bor doira yasab, havoga ko'tarildi. Kamron uning ortidan uzoq vaqt osmanga tikilib qoldi.

Nodir NE'MATOV,

Jizzax viloyati, Zomin tumanidagi 50-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi

## BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIRI!

## HISOB-KITOBNI BILASIZMI?

Aylanadagi qizil sonlarni bo'sh aylanalarga shunday joylashtiringki, natijada har bir qator va ustunlardagi raqamlarning yig'indisi to'rtburchaklardagi sonlarga teng bo'lsin.

7	8	9			
5	3	+	○	+	1 = 11
	+		+		
4	○	+	○	+	○ = 15
	+		+		
2	○	+	6	+	○ = 19
	=		=		=
	17		15		13

Tuzuvchi: Fayzulla ABDULLAYEV

7-sonda berilgan «Sports» aylanma skanvordining javoblari: Boks. Futbol. Turnik.

Ring. Shashka. Kurash. Suzish. Kubok. Uloq. Futzal. Koptok. Ochko.

8



### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxaidan o'tgan.

23-fevral 2015

**TAHRIR HAY'ATI:**  
Omonulla YUNUSOV,  
Abdug'ani XOLBEKOV,  
Bahodir G'ANIYEV,  
Svetlana INOMOVA,  
Murtazo SULTONOV,  
Zoir ISAJONOV,  
Vahobjon RAJAPOV,  
Zikrilla TESHABOYEV,  
Feruz JALILOVA,  
Sa'dullo TURSINOV  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Feruz MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib)

**Navbatchi muharrir**  
Jamshid MATYOQUBOV  
**Rassom**  
Feruzbek KAMOL o'g'li

**Manzili:**  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail:  
info@tongyulduzi.uz  
www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08  
Tel./faks:  
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi. Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092  
Adadi – 47000  
Buyurtma – S 2207

## BU - MENING YURTIM!

O'zbekistonda mustaqillikning ilk yillaridanoq qaysi davlat bilan munosabat o'rnatilmasin, teng huquqlikni ta'minlaydigan adolati yo'l tanlandi. Har yili yurtimizda o'rtacha 800-900 ming yangi ish o'rinlari yaratilayotgani, ularning yarmidan ko'pi qishloq joylarda tashkil etilayotgani, avvalo, qishloqlarga, qolaversa, hududlarda istiqomat qilayotgan yoshlarga bo'lgan yuksak e'tibor natijasidir.

Ma'lumotlarga ko'ra, har yili sayyoramizda 14 million go'dak ochlik va turli kasalliklardan nobud bo'layotgan, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa maktabga jalb etilgan bolalarning 60 foizi turmush qiyinchiliklari tufayli o'qish imkoniyatidan mahrum bo'layotgan bir paytda jannatmakon yurtimizda milliard-milliard mablag'ning yosh avlod vakillarining kamolotiga sarflanishi bizda iftixor tuyg'usini uyg'otadi. Har bir yosh shunday mamlakatda yashayotganiga, bu yurt har birimizning kelajagimiz, boyligimiz ekanligiga shukronalar aytisak arziydi.



Umida ABDURAHIMOVA,

Namangan viloyati, Uchqo'rg'on tumanidagi Qayqi qishloq kasb-hunar kollejining 1-bosqich o'quvchisi

## RANGLARGA KO'CHGAN BEG'UBORLIK

Ibodulla oilada kenja farzand. Opalari Xolida, Madina va O'g'iloy maktabda a'lo baholarga o'qishadi. Xolida rang-barang mavzuda rasmlar chizishni yaxshi ko'radi. Madina esa tengdoshlari hayotidagi qiziqarli voqealar haqida hikoyalar yozishni yoqtiradi. O'g'iloyning bir-biridan



chiroyli she'rlariga esa ko'pchilik dugonalari havas qilishadi.

Hozirda Urganch shahridagi 5-umumta'lim maktabining 1-«D» sinfida o'qiyotgan Ibodulla Ibodullayev ijodkor opalaridan ibrat olib, turli mavzularda rasmlar chizish harakatida. Uning o'ziga xos, bolalarcha beg'ubor tasavvurlari qog'ozga ko'chmoqda. Ona tabiat, gullar, joylarda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlarini tasvirlashdagi samimiylik kishini bolalikning ajib damlariga yetaklagandek bo'ladi, go'yo.

Yusuf OG'AY

## TOPISHMOQLAR



Turli mahsulotlarni muzdekkina saqlaydi. Qoyil qilib ishini, Ishonchimiz oqlaydi.

O'zi mittigina, lek, To'nlari qavat-qavat. Bizlarni yig'latsa-da, U bilan totli ovqat.



Dilshoda MAMADALIYEVA, Farg'ona san'at kollejining 1-bosqich o'quvchisi